

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08
RAQAMLI ILMIIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TO‘XTAYEV BOBIR-MIRZO AVAZOVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “ELEKTRON PARLAMENT” TIZIMI
VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy(PhD)

To‘xtayev Bobir-Mirzo

О‘zbekiston Respublikasida “elektron parlament” tizimi va uni takomillashtirish masalalari.....3

Тухтаев Бобир-Мирзо

Система «электронного парламента» в Республике Узбекистан и вопросы ее совершенствования.....25

Tukhtaev Bobir-Mirzo

The system of “electronic parliament” in the Republic of Uzbekistan and issues of its improvement
.....48

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....63

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08
RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TO‘XTAYEV BOBIR-MIRZO AVAZOVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA “ELEKTRON PARLAMENT” TIZIMI
VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ss334 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus, (rezyume)) O‘zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo‘rayev Qodir Asadovich
siyosiy fanlar doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Jo‘rayev Narzulla Qosimovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Topildiev Vohidjon Rahimjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” ___ soat __ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona) Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. O‘zMU Ma‘muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-67-71; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ da tarqatildi.

(2024-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.I. Paxrutdinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

G.T. Isanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, siyosiy fanlar bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent.v.b.

I.E. Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi
o‘rinbosari, siyosiy fanlar doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.

Zamonaviy dunyoda raqamlashtirish jarayonlari har qachongidan ko'ra avj olgani, elektron hujjat aylanishidan tortib, oddiy hayotiy ehtiyojlarimizgacha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida amalga oshirilayotgani, Internet jahon tarmog'i shiddat bilan barcha sohalarga kirib borayotganini kuzatish mumkin.

Tabiiyki, ushbu tendentsiya vakillik organlari faoliyatiga ham keng ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida keng joriy etilishi mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlis faoliyatida ham mazkur texnologiyalarni keng qo'llash zaruriyatini yuzaga keltirdi. Oliy Majlis vakolatlarini kengaytirish, uning faoliyatini raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish orqali modernisatsiya qilish zarurligi borasidagi vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning qator nutq va chiqishlarida o'z aksini topmoqda. Jumladan, Prezidentning Oliy Majlisga yo'llagan ilk Murojaatnomasida (2017 y.) qonunlar muhokamasiga xalq ommasini keng jalb qilish maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jumladan, Internet tarmog'ida maxsus "maydon"lar yaratish va demokratiyaning ilg'or mexanizmi sifatida jamoa bo'lib elektron murojaat kiritish tartibini tatbiq qilish kabi takliflar ilgari surilganligi¹ fikrimizning yorqin dalilidir.

Darhaqiqat, Oliy Majlis faoliyatida ochiqlik va oshkoralik, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash hamda xalq bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish ustuvor vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, "elektron parlament" tizimi mexanizmlarini takomillashtirishga bo'lgan zarurat hamda ushbu masalaning ilmiy jihatdan to'liq o'rganilmaganligi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini namoyon etadi.

Dunyodagi ilg'or ilmiy-tadqiqot markazlarining tahlillari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda dunyoda "elektron parlament" tizimini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar har qachongidan ko'ra faollashgan. Masalan, dunyo parlamentlarini birlashtirib turgan nufuzli xalqaro tashkilot – Parlamentlararo Ittifoqning 2020 yilgi Dunyo "elektron parlament"lari hisobotida 120ga yaqin mamlakatda "elektron parlament" tizimini rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi qayd etiladi.²

Mazkur dissertatsiya ishi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi"da va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2018 yil 15 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida "Elektron parlament" tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1899-III-son qo'shma

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <https://president.uz/uz/lists/view/1371>

² World e-Parliament Report 2020. –p. 14. <https://www.ipu.org/resources/publications/reports/2021-07/world-e-parliament-report-2020>

qarorida “elektron parlament” tizimini rivojlantirish borasida belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilab berilgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini yanada takomillashtirishga oid strategik maqsad va vazifalar³ mazkur tadqiqotning ilmiy-metodologik asosi bo‘lib xizmat qilgan.

Ushbu dissertatsiya doirasida turli yillarda amalga oshirilgan ilmiy ishlar tahlili parlament faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi va “elektron parlament” tushunchasining gnezisi, uning vakillik organlari faoliyatida “ochiqlik”, “shaffoflik”, “hisobdorlik” va “samaradorlik”ni ta‘minlashdagi o‘rni borasida xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan bir qator izlanishlar olib borilganligini ko‘rsatadi.

Chunonchi, o‘zbekistonlik olim va mutaxassislarning “elektron parlament” mavzusiga oid olib borgan ilmiy izlanishlari unchalik ko‘p emasligini qayd etish joiz. Mazkur yo‘nalishda Z.I.Abdullaev, Q.A.Jo‘rayev, D.K.Kuvandikova, Z.O.Muxamedjanov, M.M.Mamasiddiqov, A.A.Otajonov, I.Ergashev, Sh.I. Paxrutdinov, A.G. Muminov, D.B. Sayfullayev, Sh.A. Yovqochev, F.X. Otaxonov, U.X. Butayev, A. Utamurodov kabi tadqiqotchilarning ayrim ilmiy maqolalari va sohaga bilvosita aloqador bo‘lgan ayrim monografiyalarini sanab o‘tish mumkin.⁴

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida mazkur yo‘nalishda O.I.Xarchenko, Ye.G.Abramenko, T.L.Rovinskaya, V.P.Kirilenko, G.V.Alekseev, Yu.M.Selin, G.M.Kujukeeva, G.A.Vladimirov, A.S.Koshel, A.A.Kerimov, R.V.Puzikov,

³ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016; Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Т: Ўзбекистон, 2017; Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбарнинг кундалик қонидаси бўлиш керак. – Т: Ўзбекистон, 2017; Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017; Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. – Т: Ўзбекистон, 2022.

⁴ Абдуллаев. З.И. Электронный парламент: анализ международной и национальной практики. Scientific Collection «Interconf» № 85 С. 199-206. Кувандикова Д.К. Перспективы развития информационнокоммуникационных технологий в Узбекистане. // «Иқтисодий ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2016 йил. Мухамеджанов О. Ўзбекистонда электрон демократия асосларини шакллантириш: давлат ва фуқаро ўртасидаги самарали муносабатларга ёндашувлар. // Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue -1, №02 (2020) / ISSN 2181-1415. Мамасиддиқов М.М., Отажонов А.А. ва бошқ. Мамлакатимизда давлат идоралари фаолияти устидан самарали жамоатчилик назоратини ўрнатиш механизмларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш (монография)

N.A.Zaxarova, A.M.Oreshina, S.G.Kamolov, P.V.Artemova ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.⁵

“Elektron parlament” mavzusida, ayniqsa, AQSh va Yevropa mamlakatlari tadqiqotchilari salmoqli izlanishlar olib borishgan. Xususan, E.Burt, J.Taylor, K.Hakker, K.Koglianese, S. Koleman, B.Mulder, K.Leston-Bandeyra, D.Bender, G.Lauson, D.Betam, A.Armit, G.Sultanyan, T.Kingxam, X.Dai, P.Norton, Dj.Griffit, A.Papaloi, D.Gouskos, shuningdek, boshqa bir qator mualliflarning ilmiy asarlarini ajratib ko’rsatish mumkin.⁶

Yuqoridagi mualliflarning asarlari zamonaviy parlamentlar faoliyatining turli jabhalarini qamrab olgan bo’lsa-da, biroq ularning barchasi bir masalada o’z yakdilligini namoyon etishgan: parlament faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanish printsiplial jihatdan zarurdir. Chunki parlamentning asosiy funksiyalari qonun chiqaruvchi, nazorat va vakillik bo’lgani uchun nafaqat parlament yoki uning palatalari, balki har bir deputat ishining shaffofligini ta’minlab beradi va pirovardida, mamlakatda olib borilayotgan axborot siyosatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Fuqarolar parlament faoliyatiga oid to’liq ma’lumotlarga ega bo’ladi, bu esa

⁵ Харченко О.И. Электронный парламент как стадия развития информационного общества. Абраменко Е.Г. Электронный сборник статей Международного круглого стола (Новополоцк, 16 апреля 2021 г. Ровинская Т.Л. Электронная демократия в теории и на практике // Мировая экономика и международные отношения. 2013. № 12. С. 84-96. Ровинская Т.Л. Российская модель электронной демократии в международном контексте // Мировая экономика и международные отношения. 2014. № 8. С. 76-90. Кириленко В.П. "Проблемы цифрового государства в современном обществе" Российская академия народного хозяйства и государственной службы при Президенте Российской Федерации (СевероЗападный институт управления РАНХиГС), Санкт-Петербург, Российская Федерация. Кириленко В.П. "Формирование идеи электронного государства и особенности ее реализации: теоретико-правовое исследование" Диссертация 2018. Селин Ю.М. "Электронный парламент: методология принятия решений у процесса нормотворения" // Юридическая наука. - 2013. - № 1. - С. 13-20. Кужукеева Г.М. "Обзор законодательства и правоприменительной практики в законотворческой сфере в Казахстане, Кыргызстане и Таджикистане." Международный Центр Некоммерческого Права, 2020. Владимиров Г.А "Электронное правительство" в политико-административном управлении современной России" Диссертация 2009 г. Кошель А.С. Использование инструментов «электронного парламента» в парламентских процедурах. // Издательство Московского университета, «Вестник Московского университета», 2021. Ст. 62-86. Керимов А.А. Парламентская информационная открытость: уровни, институты и условия реализации. // УДК ст. 72-79. Р. Пузиков В., Применение информационных технологий в законодательной (представительной) власти Российской Федерации. // ISSN 2413-6808. Вестник ТГУ, выпуск 3 (3) ст. 16-24. Захарова Н. А., Орешина А. М. Электронный документооборот и электронный парламент (на примере Московской городской Думы) // Научно-практический журнал МГУУ Правительства Москвы ВЕСТНИК МГУУ 2015 № 2. Ст. 53-61. С.Г. Камолов П.В. Артемова Информационные технологии для государственных служащих М. – 2017 г.

⁶ Taylor, J.A., and Burt, E.(1999). Parliaments on the web: Learning through innovation. *Parliamentary Affairs*, 52(3), 503-517. doi:10.1093/pa/52.3.503. Hacker, K L. (2000). The White House computer-mediated communication (CMC) system and political interactivity. In: K. L. Hacker and J. van Dijk (eds) *Digital Democracy: issues of theory and practice*. London: Sage Publications, pp. 105-129. Coglianese, C. (2004). *E-Rulemaking: Information Technology and Regulatory Policy*. Regulatory Policy Program Report No. RPP-05. Massachusetts: Harvard University. Retrieved February 26, 2010. Coleman, S., Taylor, J.A., and Van De Donk, W.(1999). *Parliament in the information age*. *Parliamentary Affairs*, 52(3), 356-370. Doi:10.1093/pa/52.3.365. Leston-Bandeira, C., & Bender, D. (2013). How deeply are parliaments engaging on social media? *Information Polity*, 18(4), pp. 281–297. Lawson, G.(1998). *NetState:Creating electronic government*. London, UK:Demos. Armit, A. A. (2007). Beetham, D. (2006). *Parliament and Democracy in the Twenty-First Century: A Guide to Good Practice*. Geneva: Inter-Parliamentary Union. Sultanian, V.S.G. (2013) ‘To what extent can electronic parliament be applied in Jordan’, *European Scientific Journal*, Vol. 9, No. 1, pp.163–167. Kingham, T.(2003). *E-parliaments: The use of information and communication technologies to improve parliamentary processes*. Washington, DC:World Bank. Dai, X., and Norton, P. (2007a). *Parliamentary Democracy Online: Lessons from Europe*. *The Journal of Legislative Studies*, 13(3), 477-482. Griffit, J.C. (2007). *ICT in parliaments: Current practices, future possibilities*. In *World e-parliament 2007 Report* (9pp.4-16). New York, NY: United Nations.

ular bilan oliy davlat vakillik organi o'rtasidagi muloqotni kengaytiradi. Ular zamonaviy elektron resurslardan foydalangan holda o'zlarining qonunchilikka oid takliflarini bildirish va siyosiy qarorlarga ta'sir qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatimizni modernizatsiya qilishda parlamentning rolini yanada oshirish, davlat boshqaruvi va davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida "elektron parlament" tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"elektron parlament" tushunchasining genezisi, uning mazmun-mohiyati va nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish;

"elektron parlament" bo'yicha turli ilmiy qarashlar va yondashuvlarning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;

O'zbekistonda "elektron parlament" tizimining bugungi holati, konseptual-huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun ijodkorligi va parlament nazorati borasidagi faoliyati samaradorligini yanada oshirish shart-sharoitlarini tahlil qilish;

Oliy Majlis faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda unig xalq bilan muloqotini kuchaytirishda "elektron parlament" tizimining rolini ochib berish;

"elektron parlament" tizimining yanada rivojlanishi bilan bog'liq muammolar va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

"elektron parlament" tizimini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida "elektron parlament" tizimini yanada rivojlantirish istiqbollari o'rganish va bu borada ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini O'zbekiston Respublikasi vakillik orgalari faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq jarayonlar tashkil etadi.

Tadqiqot predmetini O'zbekiston Respublikasida "elektron parlament" tizimini yanada takomillashtirish bilan bog'liq siyosiy-huquqiy hamda tashkiliy-texnik mexanizmlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiylik, qiyosiy tahlil va boshqa umummantiqiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan qonun loyihalarining rasman kiritilishidan avval ularni Qonunchilik palatasi qo'mitalari bilan muhokama qilish jarayonini tashkil etish aholi va siyosiy institutlar o'rtasida ehtiyoj va manfaatlar mutanosibligiga erishish hamda o'zaro ishonch darajasini oshirishning

jamoatchilik konsensusini ta'minlashga hamda qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shartligi printsipini hayotga to'la tadbiiq etishga xizmat qilishi dalillangan;

mahalliy vakillik organlarining nazorat qilish sohasidagi vakolatlarini yanada kengaytirishning ta'sirchan mexanizmi sifatida - "Kengash deputati murojaati", "Kengash so'rovi" va "Kengash tekshiruvi" institutlari mahalliy vakillik va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida "o'zaro tiyib turish" va "manfaatlar muvozanatini saqlash" printsiplarini mustahkamlashga xizmat qilishi va siyosiy integratsiyaning mezoni ekanligi isbotlangan;

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini majoritar va proporsional asosda o'tkazishda zamonaviy siyosiy texnologiyalardan foydalanish siyosiy partiyalarning aholi bilan munosabatlarini ta'sirchan va natijali bo'lishini ta'minlovchi "aqlli boshqaruv"ning muhim vositasi ekanligi ilmiy asoslangan;

vakillik organlari faoliyatida "Raqamli xalq deputatlari Kengashi", "e-parlament", "mening fikrim.uz", "deputat.gov.uz" elektron platformalaridan foydalanilishi deputatlarning saylovchilar bilan qayta aloqalarini kengaytirish, fuqarolarning jamoaviy murojaat qilish huquqlarini ta'minlashning muhim omiliga aylanishi hamda O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlari oshishiga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Elektron parlament" tushunchasi yuzasidan turli yondashuv va qarashlarni o'rganib chiqish va umumlashtirish asosida ushbu tushunchaga ilmiy ta'rif berildi;

O'zbekistonda "elektron parlament" tizimining konseptual-huquqiy asoslari va rivojlanish bosqichlari tizimlashtirildi;

Oliy Majlis faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda xalq bilan muloqotini yo'lga qo'yishda "elektron parlament" tizimining o'rni ochib berildi;

O'zbekistonda "elektron parlament"ni rivojlantirish bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy muammolar aniqlandi;

"Elektron parlament" tizimini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi va ushbu tajribalarni mamlakatimizda qo'llash istiqbollari o'rganildi;

O'zbekistonda "elektron parlament" tizimini takomillashtirish bo'yicha istiqboldagi ustuvor vazifalar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlari, Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan va xorij mamlakatlarida nashr etiladigan nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, tadqiqot xulosalari asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya ishida keltirilgan nazariy xulosalar, amaliy takliflar va tavsiyalar vakillik organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalariga oid tadqiqot

ishlarida qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, ilmiy ish asosida oliy ta'lim muassasalari talabalari hamda tadqiqotchilari uchun ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, o'quv va metodologik qo'llanmalar ishlab chiqish mumkin.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat organining legitimligini shakllantirish, parlamentning qonun ijodkorligi va nazorat qilish sohasidagi faoliyatini yanada kuchaytirish, mamlakatimizda "elektron parlament" tizimi imkoniyatlaridan keng foydalanishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, turli siyosiy institutlar, xususan, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi belgilangan. Shuningdek, dissertatsiya materiallari "Siyosatshunoslik", "Siyosiy menejment", "Siyosiy texnologiyalar", "Zamonaviy boshqaruv", "Saylov texnologiyalari", "Davlat fuqarolik xizmati" kabi kurslarni yangi ma'lumotlar bilan boyitish, darsliklar yaratishda foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan ham amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston Respublikasida "elektron parlament" tizimi va uni takomillashtirish masalalarini tadqiq etish yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosa va takliflar quyidagi faoliyatlarga tadbiiq qilingan:

qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan qonun loyihalarining rasman kiritilishidan avval ularni Qonunchilik palatasi qo'mitalari bilan muhokama qilish jarayonini tashkil qilish aholi va siyosiy institutlar o'rtasida ehtiyoj va manfaatlar mutanosibligiga erishish hamda o'zaro ishonch darajasini oshirishning jamoatchilik konsensusini ta'minlashga hamda qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shartligi printsiptini hayotga to'la tadbiiq etishga xizmat qilishi to'g'risidagi taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi hamda palataning Innovation rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan qonun ijodkorligi, nazorat-tahlil tadbirlari doirasida olib borilgan ishlarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarining 2023 yil 4-apreldagi 02/4-05-439-sonli dalolatnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2023 yil 20 fevraldagi 2979-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2023 yil birinchi yarim yilligidagi faoliyatining asosiy yo'nalishlari" 41¹, 41², 42, 42², 42³, 42⁴-bandlaridagi vazifalarni ishlab chiqishda o'z aksini topgan;

mahalliy vakillik organlarining nazorat qilish sohasidagi vakolatlarini yanada kengaytirishning ta'sirchan mexanizmi sifatida - "Kengash deputati murojaati", "Kengash so'rovi" va "Kengash tekshiruvi" institutlari mahalliy vakillik va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida "o'zaro tiyib turish" va "manfaatlar muvozanatini saqlash" printsiplarini mustahkamlashga xizmat qilishi va siyosiy integratsiyaning mezoni ekanligi takliflari O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining (XDP) deputatlik guruhlari faoliyatini yanada kuchaytirishga oid ishlarda foydalanilgan (O'zbekiston XDP Markaziy Kengashining

2024 yil 16 yanvardagi 1-48 A-son dalolatnomasi). Natijada “Xalq deputatlari mahalliy kengashlari faoliyatini tashkil etishga doir uslubiy tavsiyalar”ni hamda O‘zbekiston XDP Markaziy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi Hay‘atining 2024 yil 12 yanvardagi H-1-6-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston XDP saylovoldi dasturida belgilangan maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha Xalq deputatlari mahalliy Kengashlardagi deputatlik birlashmalarining 2024 yilga mo‘ljallangan amaliy Harakat dasturini ishlab chiqishda manba sifatida foydalanilgan bu esa hududlardagi vakillik organlari orqali partiya maqsad va vazifalarini samarali amalga oshirishga xizmat qilgan;

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini majoritar va proporsional asosida o‘tkazishda zamonaviy siyosiy texnologiyalardan foydalanish siyosiy partiyalarning aholi bilan munosabatlarini ta’sirchan va natijali bo‘lishini ta’minlovchi “aqlli boshqaruv”ning muhim vositasi ekanligi kabi taklif va tavsiyalari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining qonun ijodkorligi borasidagi faoliyatida manba sifatida o‘z aksini topgan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2024 yil 6 yanvardagi 04/10-10-02-son dalolatnomasi). Natijada qo‘mita tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-883-son Qonunning sakkizinchi moddasi 2 va 45-bandlaridagi normalarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

vakillik organlari faoliyatida “Raqamli xalq deputatlari Kengashi”, “e-parlament”, “mening fikrim.uz”, “deputat.gov.uz” elektron platformalarini joriy etish deputatlarning saylovchilar bilan qayta aloqalarini kengaytirish, fuqarolarning jamoaviy murojaat qilish huquqlarini ta’minlashning muhim omiliga aylanishi hamda O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlari oshishiga xizmat qilishiga oid taklif va tavsiyalari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va uning Devoni faoliyatida “elektron parlament” tizimi tarkibiy qismlarini shakllantirish va joriy etish yuzasidan olib borilayotgan ishlarda (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Devonining 2023 yil 29-martdagi 03-04/426-sonli dalolatnomasi) hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni yanada takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari qo‘mitasining 2023 yil 1-maydagi 4-sonli dalolatnomasi). Natijada “elektron parlament” tizimini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturida parlament faoliyati samaradorligi va shaffofligini oshirish, parlament faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish orqali xalq bilan muloqotni kengaytirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 20-sentyabrdagi “Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari faoliyatiga “Raqamli xalq deputatlari Kengashi” kompleks axborot

tizimini tatbiq etish to'g'risida"gi KQ-407-IV-sonli qarorini tayyorlashga samarali xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari jami 15 ta, jumladan 8 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, xususan, 7 ta ilmiy maqola (2 ta xorijiy va 5 ta mahalliy jurnallarda) va 11 ta tezis (6 ta xorijiy va 5 ta respublika ilmiy anjumanlarida) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari belgilab olingan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, aprobatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **“elektron parlament” tizimini tadqiq etishning nazariy-konseptual asoslari** deb nomlangan birinchi bobida “elektron parlament” tushunchasiga nufuzli xalqaro tashkilotlar, tadqiqot markazlari va soha tadqiqotchi olimlari tomonidan berilgan turli ta'riflari, shu jumladan, mamlakatimiz sharoitida “elektron parlament” tushunchasining talqinlari keltirilgan hamda ularning muammoli jihatlari ochib berilgan.

Bundan tashqari, parlament faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi va “elektron parlament”ning evolyutsiyasi borasida turli nazariy yondashuvlar tahlil qilingan.

Shuningdek, mazkur bobda soha olimlari tomonidan “elektron parlament” bo'yicha ilmiy qarashlar, yondashuvlar va o'rganishlar tahlili berilgan. Xususan, olimlar tomonidan ishlab chiqilgan “parlament siyosiy interaktiv modelini”, “elektron parlament”ning rivojlanishiga hissa qo'shgan konsepsiyalardan biri “elektron norma ijodkorligi” (E-rulemaking) va “byudjet taqsimoti jarayonida ishtirok etish” (Participatory budgeting) konsepsiyalarining samaradorligi ochib berilgan.

Qator olimlar parlament faoliyatida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi demokratik qadriyatlarni mustahkamlanishida muhim o'rin egallashini alohida ta'kidlab, “elektron parlament”ni “ochiqlik”, “shaffoflik”, “hisobdorlik” va “samaradorlik” kabi asosiy tushunchalar bilan bog'lashadi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining doimiy takomillashib borishi va turli sohalarga keng joriy etilishi bilan bog'liq raqamlashtirish jarayonlari jamiyat hayotining barcha tarmoqlarini qamrab olmoqda. Xususan, ko'plab davlatlarda oliy vakillik organi – parlament faoliyatida ham raqamli

texnologiyalardan keng foydalanilishi natijasida yangi “elektron parlament” tushunchasi vujudga keldi.

Umumiy ma’nodan “elektron parlament” parlament faoliyatida samaradorlik, ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari majmuidan keng foydalanishni bildiradi.

“Elektron parlament” tushunchasiga ilk bor Yevropa parlament tadqiqotlar va hujjatlashtirish markazi tomonidan ta’rif berilgan bo’lib, unga ko’ra, “elektron parlament” – parlament faoliyatida shaffoflik, samaradorlik va moslashuvchanlikni ta’minlash uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash hamda tomonlarnin o’zaro muloqotini shakllantirishdir⁷

Dissretantning fikricha, soha mutaxassislari tomonidan “elektron parlament” tushunchasiga berilgan turli ta’riflarni umumlashtirgan holda mamlakatimiz sharoitida ushbu tushunchaga quyidagicha ta’rif berish mumkin: “elektron parlament” - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a’zolari hamda palatalar Devoni xodimlarining faoliyat samaradorligini oshirish, xalq vakillarining o’z saylovchilari oldidagi hisobdorligini ta’minlash, parlamentning ochiqligi va shaffofligi, shuningdek, uning xalq bilan o’zaro muloqotini kuchaytirish maqsadida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish tizimidir”.

“Elektron parlament” tushunchasining shakllanishi dastlab ba’zi davlatlar parlament rasmiy veb-sahifalarida raqamli xizmatlarning paydo bo’lishi, parlament a’zolari (deputatlar)ning kundalik ishlariga ko’maklashish, qarorlar qabul qilish hamda fuqarolarni jalb etishda axborot-kommunikatsiya vositalarini qo’llash bilan bog’liqdir.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining parlament faoliyatiga joriy etilishi xususida ayrim tadqiqotchilar fikri bo’yicha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari fuqarolarning fikr-mulohazalarini o’zlari saylagan vakillariga osonroq yetkazish uchun jihozlashi va saylangan vakillar o’z navbatida internet va elektron vositalar orqali o’zlari saylangan hudud aholisi bilan kengroq maslahatlashuvlar asosida yaxshiroq qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo’lishlari mumkin.

Parlamentlararo Ittifoqning 2008 yilgi “elektron parlament” hisobotida “elektron parlament”ga “qonun chiqaruvchi organning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali shaffof, ochiq va hisobdor bo’lishidir:”, degan mazmunda ta’rif berilgan. Shuningdek, fuqarolarga qonun chiqaruvchi organ institutlari faoliyati bo’yicha sifatli axborot va hujjatlarni taqdim etish orqali ularni ushbu jarayonga keng jalb etish muhimligi ham ta’kidlanadi, “Elektron parlament” – manfaatdor tomonlar qonun ijodkorligi, vakillik va nazorat kabi asosiy funksiyalarini yanada samarali bajarishi uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan

⁷ ECPRD, ICT Working Group Seminar, 6-7 November 2003, Nicosia, Cyprus.

foydalanadigan samarali tizimdir. Zamonaviy texnologiyalar orqali “elektron parlament” ishonchli axborot jamiyatini rivojlantiradi.”⁸

Parlament faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish 2000-yillarda yuzaga kelgan fenomen emas. Mazkur sohada innovatsion vositalardan ilgari ham foydalanilgan bo‘lib, Internet jahon tarmog‘ining vujudga kelishi esa “elektron parlament”ning keng rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qildi.

“Elektron parlament” tushunchasi nisbatan yangiligi bois, mazkur masala bo‘yicha soha mutaxassislarning ilk qarashlari va yondashuvlari asosan 2000-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi.⁹ Nazariyotchi olimlar va mutaxassislar “elektron parlament”ning demokratik qadriyatlar bilan bog‘liqligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati, parlamentning xalq bilan muloqoti va hamkorligi masalalari bo‘yicha o‘z qarashlarini bildirishgan.

Dissertantning fikricha, “elektron parlament”ning shakllanishi va rivojlanib borishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liqligi bois, aksariyat olimlar mazkur texnologiyalarning ahamiyatini yuqori baholaydilar. O‘z navbatida, olimlarning zamonaviy parlamentlar qanday bo‘lishi lozimligi haqidagi ilmiy qarashlari “elektron parlament”ning shakllanishiga va rivojlanishiga muhim turtki berdi.

Raqamli texnologiyalarning doimiy rivojlanib borishi mazkur jarayonlarni yanada oson, qulay va keng qamrovliligini ta‘minlamoqda. Vakillik organlari zimmasidagi vakolat hamda vazifalarni bajaruvchi turli dastur va onlayn platformalar yaratilmoqda. Parlament faoliyatida har qanday zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi soha mutaxassislari tomonidan ijobiy tendensiya sifatida baholanmoqda. “Elektron parlament” faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faoliyatini to‘g‘ri tashkillashtirish va ma‘lumotlarni maqsadli yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida parlament faoliyati samaradorligini ta‘minlashda “elektron parlament”ning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida mamlakatimiz parlamenti faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslari kompleks tahlil qilingan.

Mazkur bobda parlamentning xalq manfaatlarini ifodalovchi oliy vakillik organi sifatidagi faoliyatini takomillashtirishda, shuningdek, uning qonun ijodkorligi borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirishda qonunchilik tashabbusi huquqi subyekt tomonidan qonun loyihalarining rasman kiritilishidan avval Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qo‘mitalari bilan muhokama qilish jarayonini tashkil qilish muhim ahamiyatga egaligi ta‘kidlangan.

⁸ United Nations Department of Economic and Social Affairs and the Inter-Parliamentary Union through the Global Centre for ICT in Parliament. World e-Parliament 2008.-p 12 <https://www.ipu.org/resources/publications/reports/2016-07/world-e-parliament-report-2008>

⁹ Fitsilis, F.; Koryzis, D.; Svolopoulos, V.; Spiliotopoulos, D. Implementing Digital Parliament Innovative Concepts for Citizens and Policy Makers. In HCI in Business, Government and Organizations; Interacting with Information Systems; HCIBGO 2017; Lecture Notes in Computer Science; Springer: Cham, Switzerland, 2017; Volume 10293, pp. 154–170.

Shuningdek, mahalliy vakillik organlarining nazorat qilish sohasidagi vakolatlarini yanada kengaytirishning ta'sirchan mexanizmi sifatida - "Kengash deputati murojaati", "Kengash so'rovi" va "Kengash tekshiruvi" institutlari mahalliy vakillik va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida "o'zaro tiyib turish" va "manfaatlar muvozanatini saqlash" printsiplarini mustahkamlashga xizmat qilishi va siyosiy integratsiyaning mezonini ekanligini asoslovchi amaliy takliflar keltirilgan.

Bundan tashqari, O'zbekistonda "elektron parlament" shakllanish asosiy bosqichlari hamda tarkibiy qismlarining shakllanishi va taraqqiy etib borishi xronologik tizimlashtirilgan. Shuningdek, mazkur bobda Oliy Majlis faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda uning xalq bilan muloqotini kuchaytirishda "elektron parlament"ning o'rnini raqamlar va misollar orqali asoslab berilgan.

Muallifning fikricha, mamlakatimizda "elektron parlament" tizimi huquqiy asoslarini shartli ravishda quyidagi uch guruhga ajratgan holda tahlil etish mumkin. Xususan, birinchi guruhga parlament faoliyatiga tegishli bo'lgan xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, ikkinchi guruhga mamlakatimizda parlament va uning faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishiga bog'liq bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar va uchinchi guruhga "elektron parlament" tizimini shakllantirishga daxldor bo'lgan hujjatlarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari "elektron parlament" tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, Parlamentlararo Ittifoq tashkiloti tomonidan har ikki yilda bir marta butun dunyoda "elektron parlament" rivojlanish holatlari, so'rovlar orqali soha tahlili va umumiy takliflarni o'z ichiga olgan hisobotlar e'lon qilinmoqda.

Parlamentlararo Ittifoq doirasida, shuningdek, 2012 yilda "Parlament ochiqligi Deklaratsiyasi" qabul qilingan bo'lib, unda parlament faoliyati monitoringi bilan shug'ullanuvchi fuqarolik tashkilotlarining milliy parlamentlar va xalqaro qonun chiqaruvchi organlarga ochiqlikni oshirish va fuqarolarni parlament faoliyatiga jalb etish maqsad qilingan.¹⁰ Deklaratsiyada parlamentning fuqarolarga ochiqligini ta'minlashi bo'yicha bir qancha tavsiyalar taqdim etilgan. Xususan, uning ochiqligi borasida parlament axborotini to'liq, to'g'ri va o'z vaqtida olish huquqlari hurmat qilinishini ta'minlashi borasida tavsiyalar berilgan.

"Elektron parlament" tizimi huquqiy asoslaridagi muhim jihat fuqarolarning davlat organlariga murojaatlarining ta'minlanishi masalasidir. Shu maqsadda, axborotlashtirish to'g'risida, axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida va davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida qator qonunlar qabul qilingan.

Bundan tashqari, "elektron parlament" faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlashni muvofiqlashtirish ham muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli, "elektron parlament" faoliyatini shakllantirish maqsadida mazkur yo'nalishda ham muhim hujjatlar qabul qilindi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini joriy etish bo'yicha

¹⁰ The Declaration on Parliamentary Openness. <https://openingparliament.org/static/pdfs/english.pdf>

faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarida "elektron parlament" tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida", "Hokimiyat vakillik organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqligini ta'minlashga qaratilgan "elektron parlament" tizimi loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda "elektron parlament" tizimini rivojlantirish jarayonlari va bosqichlarini shartli ravishda uch davrga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

Birinchi davr 1991-2003 yillarni o'z ichiga olib, mazkur davr Oliy Majlis faoliyati yo'lga qo'yilishi bilan bog'liqdir. Bu davrda O'zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti – Oliy Majlis shakllandi.

Ikkinchi davr 2004-2016-yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu davrda Oliy Majlis ikki palatali parlamentga aylantirilib, uning palatalari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etish ishlari ancha jadallashdi. Xususan, 2006 yildan boshlab Oliy Majlis Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sahifasi (parliament.gov.uz) hamda Oliy Majlis Senatining rasmiy veb-sahifasi (senat.uz) o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. Bundan tashqari, palatalarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari tashkil qilindi.

Uchinchi davr 2017 yildan to hozirgi kungacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davrda mamlakatimizda "elektron parlament"ni rivojlantirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturining 5-bandida Oliy Majlisning xalq bilan muloqotini takomillashtirish maqsadida "elektron parlament" tizimini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Bundan tashqari "Mening fikrim" maxsus veb-portali yaratildi, elektron hujjat aylanishi tizimi takomillashtirildi; Qonunchilik palatasidagi ovoz berish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etildi; qonun ijodkorligi jarayonini zamonaviylashtirishga qaratilgan avtomatlashtirilgan tizim ishlab chiqildi; deputatlar portallari ishga tushirildi, parlament kutubxonasi yangilandi; shuningdek, parlament va uning a'zolarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari yaratildi.

Bugungi kunda Oliy Majlis faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda xalq bilan muloqotni yo'lga qo'yishida "elektron parlament"ning ahamiyati turli yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda. Xususan, "elektron parlament" tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan parlament veb-sahifalari orqali qonunchilik faoliyatiga oid axborotlar, muhokama etilayotgan qonun loyihalari, qabul qilingan yangi qonunlarga sharhlar, deputatlarning qonun loyihalariga munosabati va ularni qabul qilishdagi ishtirokiga oid ma'lumotlar doimiy tarzda berib borilmoqda.

Elektron platforma va portallar orqali xalq bilan muloqot yo'lga qo'yilib, qonun va qarorlar loyihalarini muhokama qilishda jamoatchilik fikri, takliflari hamda munosabatini inobatga olish ta'minlandi. Shuningdek, parlament a'zolarining ijtimoiy tarmoqlar orqali faollashuvi jamoatchilik fikrini o'rganishga, aholi bilan tez

va oson muloqot o‘rnatish, ularning fikrlari, takliflari hamda e’tirozlarini o‘rganish yanada osonlashdi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida “elektron parlament” tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida mamlakatimizda “elektron parlament”ni rivojlantirish bilan bog‘liq siyosiy-huquqiy va tashkiliy-texnik muammolar va ularni bartaraf etish masalalari, ilg‘or xorijiy mamlakatlarning “elektron parlament”ni rivojlantirishga oid tajribalari va ularni mamlakatimiz sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan.

Mazkur bobda mamlakatimizda vakillik organlarining rolini kuchaytirishda siyosiy partiyalarning o‘rni yuqoriligini hisobga olib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini majoritar va proporsional asosida o‘tkazishda zamonaviy siyosiy texnologiyalardan foydalanish muhimligi qayd etilgan. Ushbu aralash saylov tizimi siyosiy partiyalarning aholi bilan munosabatlarini ta’sirchan va natijali bo‘lishini ta’minlovchi “aqli boshqaruv”ning muhim vositasi ekanligi bilan asoslanadi.

Bundan tashqari mazkur bobda O‘zbekistonda “elektron parlament”ni yanada takomillashtirish istiqbollari tadqiq etilgan. Muallifning fikricha, bugungi kunda mamlakatimizda “elektron parlament” tizimini rivojlantirish bilan bog‘liq siyosiy-huquqiy, tashkiliy-texnik hamda xavfsizlik bilan bog‘liq qator muammolar mavjud:

Mazkur bobda bir qator ilg‘or davlatlarning sohaga oid tajribasi chuqur o‘rganilgan. Xorijiy mamlakatlarda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalarida keng joriy etilgan hamda parlament faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni yuqori bo‘lgan davlatlarning mukammal “elektron parlament” tizimi mavjud emas. “Elektron parlament” tizimi nisbatan yangiligi bois aksariyat mamlakatlarda shakllanish bosqichida bo‘lsa, qolgan davlatlar mazkur tizimni takomillashtirish jarayonida.

“Elektron parlament” tizimini yanada rivojlantirishda G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSh, Kanada, Skandinaviya mamlakatlari, Boltiq bo‘yi mamlakatlari va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarining tajribasi muhim ahamiyatga egadir. Xususan, mazkur sohada AQShning parlament rasmiy veb sahifalaridagi keng imkoniyatlar, vakillar, yetakchilar, qo‘mitalar, qonunchilik faoliyati, umumiy tushuntiruv ruknlari, kongressmen bilan aloqa, uning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalariga havola hamda jonli yoritilib borilishi, kongresmenning tarjimai xoli, faoliyat yuritayotgan qo‘mitasi, ofislar, OAV dagi chiqishlari bilan tanishishi, vakilning qonunchilik tashabbuslari va saytdagi kamchiliklar xususida fikr bildirish kabi funksiyalar mukammal ishlab chiqilgan.

Buyuk Britaniyaning “elektron parlament” bo‘yicha tajribasi parlament faoliyatiga aholini jalb etishga hamda “elektron parlament” imkoniyatlarini keng targ‘ib etishga qaratilgan. Misol uchun, mamlakatdagi parlament binosi Vestminster saroyida ta’lim markazlari, ijtimoiy tarmoqlarda maxsus kanallar va o‘quvchilar uchun parlament ta’limi bo‘yicha o‘quv dasturlari mavjud. Germaniyada esa parlament faoliyatini bolalar va o‘smirlarga tanishtirish uchun turli interaktiv o‘yinlarni o‘z ichiga olgan onlayn platforma va saytlar yaratilgan.

Shuningdek, Fransiya, Daniya, Portugaliya, Braziliya va Argentina kabi davlatlarda qonun loyihasiga fuqarolarning fikr-mulohazalari, e'tiroz va takliflarini elektron tarzda qabul qiladigan turli platformalar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda "elektron parlament" tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mazkur vazifalar 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ham o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda "elektron parlament" tizimini rivojlantirish doirasida "elektron parlament" tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan parlament palatalari rasmiy veb-sahifalarni yanada takomillashtirish, boyitish va doimiy yangilanib borilishini ta'minlash, test rejimida ishlayotgan sahifalarni to'la ishlashini yo'lga qo'yish va ularni bir-biriga integratsiya qilish, fuqarolarning parlamentga murojaat yo'llashida ommalashgan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, "elektron parlament" faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish, qonun loyihalarini ishlab chiqishda fuqarolar ishtirokini kengaytirish borasidagi mexanizmlarni takomillashtirish, parlament kutubxonasi va axborot resurs markazlari resurslarini raqamlashtirish va boyitish kabi masalalar hali-hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

XULOSA

"Elektron parlament" tizimining nazariy-konseptual jihatlari, O'zbekiston Respublikasida parlament faoliyati samaradorligini ta'minlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, mamlakatimizda "elektron parlament" tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari tadqiq etgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

